

XI. XIZMATLAR

2022- yilning yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 4 802,4 mlrd. so'mni, shu jumladan qishloq joylarida 1 426,6 mlrd. so'm yoki umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 29,7 foizi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,9 foiz)ni tashkil qildi.


Bozor xizmatlarining ishlab chiqarishni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>2021- yilga nisbatan, % da</i>	<i>Yakunga nisbatan, % da</i>	<i>sh.j: qishloq joylarida mlrd. so'm</i>
Jami xizmatlar	4 802,4	112,9	100,0	1 426,6
<i>sh. j: xizmat turlari bo'yicha</i>				
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	232,9	117,7	4,9	1,2
Moliya xizmatlari	802,4	135,9	16,7	172,3
Transport xizmatlari	1 013,0	110,5	21,1	493,7
<i>sh. j: avtotransport xizmatlari</i>				
	949,0	107,7	19,8	487,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	156,4	105,3	3,2	27,7
Savdo xizmatlari	1 339,0	107,8	27,9	448,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	120,6	116,7	2,5	38,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlari	238,3	87,9	5,0	32,1
Sog'liqni saqlash xizmatlari	110,2	114,4	2,3	25,7
Ijara va prokat xizmatlari	144,1	100,9	3,0	28,2
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	130,8	109,3	2,7	37,4
Shaxsiy xizmatlar	215,7	112,1	4,5	70,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	162,7	117,1	3,4	25,2
Boshqa turdagi xizmatlar	136,3	127,1	2,8	25,6

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo (jami xizmatlarning 27,9 foizi), transport (21,1 foizi) xizmatlariga to'g'ri keldi.

Shuningdek, moliyaviy xizmatlarda (135,9 foiz), boshqa turdagi xizmatlarda (127,1 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (117,7 foiz) hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (117,1 foiz) o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

2022- yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari 27,9 % - eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Shuningdek, transport xizmatlari – 21,1 %, moliyaviy xizmatlar – 16,7 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 5,0 % hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 4,9 % ko'rsatkich bilan yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida savdo xizmatlari (213,3 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (213,1 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (144,9 mlrd. so'mga) hamda shaxsiy xizmatlarda (52,3 mlrd. so'mga) o'sish kuzatildi.

Hududlar kesimida bozor xizmatlari ishlab chiqarishi

	Hajmi			Aholi jon boshiga	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yilga nisbatan, % da</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2021- yilga nisbatan, % da</i>
Viloyat bo‘yicha	4 802,4	112,9	100,0	1 188,5	110,5
Samarqand sh.	2 121,4	116,9	44,2	3 767,4	114,8
Kattaqo‘rg‘on sh.	107,7	110,2	2,2	1 167,7	108,4
tumanlar:					
Oqdaryo	162,4	109,2	3,4	981,6	106,8
Bulung‘ur	120,8	110,4	2,5	623,6	108,2
Jomboy	218,2	110,5	4,6	1 206,2	107,7
Ishtixon	170,1	108,9	3,5	641,7	106,3
Kattaqo‘rg‘on	191,0	110,1	4,0	675,3	107,9
Qo‘shrabot	93,0	108,2	1,9	680,6	105,9
Narpay	155,8	109,1	3,3	709,6	107,2
Payariq	168,3	109,7	3,5	644,7	107,2
Pastdarg‘om	284,8	108,9	5,9	773,5	106,7
Paxtachi	101,4	108,8	2,1	685,0	107,3
Samarqand	297,6	109,0	6,2	1 135,4	106,9
Nurobod	92,1	109,6	1,9	588,2	107,3
Urgut	302,9	110,3	6,3	567,3	107,5
Toyloq	214,9	114,7	4,5	1 017,9	111,7

Hududlar kesimida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan xizmatlarning eng yuqori o‘shish sur‘ati Samarqand shahri (116,9 foiz) hamda Toyloq tumani (114,7 foiz) hissalariga to‘g‘ri keldi.


Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Samarqand, (3 767,4 ming so‘m), Kattaqo‘rg‘on shaharlarida (1 167,7 ming so‘m) va Jomboy (1 206,2 ming so‘m) hamda Samarqand (1 135,4 ming so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ulushlari Samarqand shahri (44,2 foiz), Urgut (6,3 foiz), Samarqand (6,2 foiz), Pastdarg‘om (5,9 foiz) hamda Jomboy (4,6 foiz) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keldi.

2022- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 188,5 ming so'mni tashkil qildi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 110,5 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Samarqand shahrida 3 767,4 ming so'mdan Urgut tumanida 567,3 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati (2022- yil yanvar-mart oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida 3 767,4 ming so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,8 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Kattaqo'rg'on shahrida (108,4 %) hamda Toyloq (111,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Nurobod (588,2 ming so'm), Bulung'ur (623,6 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, uning tarkibini, yetarlicha rivojlangan jamiyat va rivojlangan ehtiyojlar bilan takomillashtirish mumkin va bu umuman hayot sifati kabi hodisa bilan bog'liq, chunki turli ehtiyojlarni qondirish jarayoni hayot sifatining muayyan standartini yaratadi.